

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISHGA KASBIY TAYYORLASHNING BA'ZI MULOHAZALARI

Kasimova D.B.

o'qituvchi Nizomiy nomidagi TDPU

Berdaliyeva Muqaddas Eshboy qizi

“Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi” yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga ning ota-onasi bilan hamkorlikka tayyorlash jarayonining mazmun-mohiyati va tuzilishini aniqlash va asoslash uchun nazariy, uslubiy va amaliy asoslarni izlashdan iborat bo'lgan muhim vazifalarni bajarishni taqozo qiladi.

Tayanch so'zlar: ta'lim muammolari, siyosat, ziddiyatlar, tub o'zgarish

Abstract: This article requires students of preschool education to perform important tasks, which consists in searching for theoretical, methodological and practical foundations to determine and justify the content and structure of the process of preparation for cooperation with parents.

Key words: educational problems, politics, conflicts, fundamental change

Oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab va oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi zamonaviy tarbiyachilarni bu sohada zarur tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi zarurligiga ishora qiladi. Bunday kompetensiyalarga ega bo'lish esa oila, jamiyat va davlat ta'lim talablarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ijtimoiy shartnomasining amaliy ifodasi bo'lib hizmat qiladi.

Biroq, oiladagi ba’zi ma’naviy-axloqiy me’yorlar va an’analarning yo‘q bo‘lib boryotganligi, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni kuchayib borayotganligi, ota-onalarning ta’lim muammolarini hal qilishdagi uquvsizligi, oila institutining inqirozidan dalolat beruvchi bir qator salbiy hodisalar bu borada nazariy va metodologik baza rivojlanmaganligidan dalolat bermoqda. Bularning barchasi oliy ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini ushbu jarayon uchun nazariy va amaliy jihatdan oilada, ta’limda va umuman jamiyatda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlarni hisobga olgan holda kasbiy tayyorlash zarurligini ko‘rsatib turibdi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlash masalasi olimlar, tadqiqotchilar, uslubchilar va amaliyotchilarning diqqat markazidagi muhim masalalardan. Ushbu sohadagi keng qamrovli izlanishlarga qaramay, bugungi kunda maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi bo‘yicha adabiyotlarda tarbiyachilarni bolalarning ota-onalari bilan hamkorlikka tayyorlashning mohiyati yetarli darajada ochib berilmagan, ushbu jarayonning samaradorligini ta’minlovchi pedagogik sharoitlar yetarlicha aniqlanmagan. Bu esa oilaviy-pedagogik hamkorlik kompetensiyasini shakllantirishni ta’minlaydigan talabalarni kasbiy tayyorlashning o‘ziga xos modeli ishlab chiqilmagan, deb xulosa qilishimizga asos bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini ota-onalar bilan hamkorlik qilish, izlanish va ijodiy tajriba orttirishga imkon beradigan, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiradigan “oilaviy –pedagogik hamkorlikning vakolatlari”deb nomlangan tushunchani kiritish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Hamkorlik to‘g‘risidagi bilimlar uning tarkibiy qismlarini asoslash va joriy etish orqali tizimlashtiriladi va chuqurlashtiriladi. Pedagogik muammolarni hal qilish va ziddiyatli vaziyatlarni oldini olishda hamkorlik - bu insonparvar pedagogika g‘oyalarining amaldagi ko‘rinishidir. Shunday ekan, birinchi galda ixtisoslik fanlarini o‘qitishning didaktik imkoniyatlaridan foydalanib talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikka tayyorlashning mohiyati va tarkibiy qismlariga daxldor bilimlar bilan qurollantirish kerak. “Oilaviy-pedagogik hamkorlik kompetensiyasini shakllantirishning shakllari va usullari: amaliy jihat” mavzusida maxsus seminar, mualliflik savolnomalari va

testlari, o‘quv mashg‘ulotlari va hamkorlikni tashkil etish uchun tavsiyalar ishlab chiqish yaxshi natijalar beradi. Olingan natijalar asosida to‘plangan materiallar bakalavr va magistr talabalar uchun o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqishda, malaka oshirish tizimida va bevosita maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Терехова, О. (2022). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ–РЕЗУЛЬТАТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПСИХИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(23), 17-20.
2. Жўраева, Н. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ СИФАТИ ИНДИКАТОРЛАРИНИ АМАЛИЁТГА ЖОРИЙ ЭТИШ МАЗМУНИ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 491-493.
3. Sabirovna, A. G. (2022). Formation of Self-Estimation in Preschool Children. Spanish Journal of Society and Sustainability, 3, 6-8.
4. Махмудова, Д.М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методлари. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 274-278.
5. Каюмова, Н. М. (2022, November). Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организatsии. In international scientific and practical conference" the time of scientific progress" (Vol. 1, No. 3, pp. 102-107)
6. Nurbaeva, I. T. (2022, November). Models of pedagogical communication in the educational process. In international scientific and practical conference" the time of scientific progress" (vol. 1, no. 3, pp. 88-95).
7. Kasimova D.B. (2022). Management of the Plot-Role-Playing Games of Preschool Children in the Conditions of Pre-School Education. Spanish Journal of Society and Sustainability, 3, 9-11.

8.Алиходжаева, Г.С. (2021). Формирование социально-коммуникативной компетентности у детей старшего дошкольного. Экономика и социум, (5-1), 46-50.

9.Chorieva, D. A. (2022, November). DIAGNOSTIC FEATURES TO IMPROVE LEARNING PROCESS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 3, pp. 145-149).

